“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 1, ISSUE 6, 2023. SEPTEMBER
ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869

# YOSHLAR ESTETIK TAFAKKURINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY HAMDA PEDAGOGIK ZARURIYATI

**Djalalova Nigora Xusanovna**
FarDU san’atshunoslik fakulteti o‘qituvchisi
nx_djalalova@mail.ru

**Annotasiya:**

Ushbu maqolada yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy hamda pedagogik zaruriyati haqida, bu boradagi muammolar va ularning yechimlari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** estetik tafakkur; ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-estetik munosabat; falsafiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy, estetik bilimlar; pedagogik tarbiya va ta'lim tamoyillari.

**Аннотация:**

В данной статье говорится о социально-философской и педагогической необходимости совершенствования эстетического мышления молодежи, проблемах в этом плане и их решениях.

**Ключевые слова:** эстетическое мышление; социально-философское, морально-эстетическое мироощущение; философские, духовно-этические, культурологические, эстетические знания; принципы педагогической подготовки и воспитания.

**Annotation:**

This article talks about the socio-philosophical and pedagogical need to improve the aesthetic thinking of young people, problems in this regard and their solutions.

**Key words:** Aesthetic thinking; socio-philosophical, moral and aesthetic worldview; philosophical, spiritual-ethical, cultural, aesthetic knowledge; principles of pedagogical training and education.

Jamiyatimizning ma’naviy yangilanish va Yangi O‘zbekistonni shakllantirishning jadal sur’atlari davridagi bugungi sharoitda har bir shaxsdan yuksak ma’naviyat, ma’naviy quvvat, keng bilim va qobiliyat talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Biz o'z oldimizga qanday vazifalar qo'ysak, qanday muammolarni hal qilishimiz kerak bo'lmasin, pirovardida suhbat yoshlarga va yana yoshlarga taqaladi ".

Shubhasiz aytish mumkinki, kelajagimiz, yurtimiz kelajagi bizning o'rnimizga kimlar kelishiga, boshqacha aytganda, qanday kelajak avlodni tarbiyalashimizga bog'liq. Mamlakat kelajagi yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy faolligi, aql-zakovati, odob-axloqi, estetik, psixologik va jismoniy tayyorgarligi hamda har tomonlama barkamol bo'lib yetishishiga bog'liq. Ma'lumki, insonning ichki tabiiy go'zalligiga, har tomonlama rivojlangan jamiyat va ijtimoiy hayotga ega bo'lishi, insonning olamga munosabatini, har tomonlama barkamol bo'lishi, hayotdagi o'rni, ijtimoiy yo'nalish va o'z-o'zini anglashga chaqirish axloqiy va estetik tafakkurlarining yuksakligiga bog'liqdir.

Ijtimoiy-falsafiy dunyoqarash, estetik tafakkurning shakllanganligi nafaqat axloqiy me'yorlar asosida yashash, go'zallik qonuniyatlari asosida harakat qilish, balki insonning voqea- hodisalarga ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi bilan belgilanadi. Uning ta'sirida umuminsoniy g'oyalar, ideallar, bilim va dunyoqarashlar asoslanadi, rivojlantiriladi va amaliyotda qo'llaniladi. Binobarin, uzluksiz ta'limda bo'lajak yosh avlodni tarbiyalashda ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-estetik tafakkurni shakllantirib, yuksaltirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyatdir.

Ijtimoiy- falsafiy (estetik) dunyoqarash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida o'ziga xos nazariy va amaliy sharhlarga muhtoj. Garchi u insoniyat kelajagi rivoji uchun zarur bo'lsa ham jamiyat ravnaqida katta ahamiyatga egadir.

Dunyoqarash insonga xos bo'lgan ideallar tizimidan iborat: tabiat, jamiyat, tafakkur, faoliyatning ongini rivojlantirishga qaratilgan qarashlar. Binobarin, u inson ma'naviyatini boyitadi. Har bir inson dunyoqarashi rivojlangan holda o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'yadi va ularga erishish uchun to'xtovsiz, ijodiy mehnat bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham u yoshlarni aql-idrok, o'z vatanini sevish va O'zbekiston Respublikasining buyuk kelajagining faol bunyodkorlari bo'lishga chaqiradi.

Estetik tafakkuri, dunyoqarashi rivojlangan har bir shaxs o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'yadi va ularga erishish yo'lida to'xtovsiz ijodkorlik ishlari bilan shug'ullanadi. Tafakkur- inson faoliyatining rivojlanish mazmunini, uning tabiati, ijtimoiy jamiyatdag qarashlarini belgilab beradi. Bu qarashlar asosida yaxlit xususiyatlar sifatida ijtimoiy-mafkuraviy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy,

estetik bilimlarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga, tafakkur asosini insonning tevarak-atrofdagi olamga, ijtimoiy-falsafiy hayotga, odamlarga, faoliyatga munosabati, shuningdek, insoniy va fuqarolik burchiga munosabati tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, tafakkur inson tomonidan ongli va aqlli ravishda to'plangan hayot uchun zarur bo'lgan bilimlar yig'indisi bilan shakllanadi va yuksaladi. Buning uchun esa yoshlarga yo'l ko'rsatadigan pedagogik zaruriyat kelib chiqadi.

Estetik tarbiya muammosi hozirgi zamon umuta'lim maktablari , o'rta maxsus va Oliy ta'limda dolzarb bo'lib qoldi. Yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash, ularni estetik tafakkurlarini yuksaltirish muammosini hal qilishda cheklovlar mavjud bo'lib, ular musiqiy madaniyatning nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Davlat ta'lim standartida ta'limning asosiy maqsad va vazifalari bilan bir qatorda "musiqiy ta'lim"da musiqiy -madaniy an'analar asosida axloqiy-estetik tarbiyaning asosiy yo'nalishi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Ya'ni, axloqiy va estetik tuyg'ular: o'z xalqiga, Vataniga, madaniyatiga, an'analariga muhabbat; turli xalqlarning tarixi, an'analari, madaniyatiga hurmat; san'atga emotsional va qimmatli munosabatda bo'la olish kabi xislatlarni uzluksiz ta'limda pedagog o'quvchi-yoshlarda shakllantirishi shartdir. Pedagogikada quyidagi tarbiya va ta'lim tamoyillarini qo'llash lozim:

1. Har bir iste'dod uchun ularning tabiiy qobiliyatining darajasidan qat'iy nazar ijod yo'lini keng ochib berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish ( musiqiy madaniyat misolida);
2. Bolalarni, o'quvchi-yoshlarni tug'ma xarakter xususiyatlarini va ma'naviy ijodkorlik qobiliyatlarini hisobga olgan holda tug'ma qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish. Bolalarda musiqiy tafakkurini rivojlantirish.Chunki har qanday ijod tafakkurdan boshlanadi. Go'zallik haqidagi fikrlar esa ajoyib ijodlarga boshlaydi.

Ma'lumki, faqat insonga " tuyg'u" toifasi xos bo'lib, u insonning madaniy va hissiy rivojlanishining eng yuqori mahsulidir. Psixologlar musiqiy madaniyat yordamida insonning estetik tarbiyasini san'at vositasi otqali tarbiya,deb hisoblaydilar.

Faylasuf B. Kristiansen ta'kidlaganidek: "San'at asarlarining birorta elementi ham muhim emas... Muhimi, u bizda uyg'otadigan hissiy reaksiyadir" [1]

Musiqiy asarlar orqali estetik tarbiyalash jarayoni pedagogik zaruriyatni keltirib chiqaradi. Yoshlarni musiqiy madaniyat orqali estetik tarbiyalash jarayonini amalga oshirishda musiqa oʻqituvchisi muhim oʻrin tutadi.

Tizimli ta'lim sharoitida boshlangʻich tayyorgarlikning yetishmasligi, uyda ota-onalarning yetarlicha malakalari yoʻqligini hisobga olgan holda milliy va jahon musiqiy durdonalarini oʻquvchi- yoshlarga singdirish qiyin boʻladi. Bu erda yosh xususiyatlarini, tayyorgarlik darajasini va boshqalarni hisobga olish kerak. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim yoshidan to yuqori sinfgacha musiqiy madaniyat darsi rejasini oʻylab tuzib chiqish kerakki, bola katta boʻlgunicha milliy musiqiy madaniyatimizdan tortib, to jahon musiqiy madaniyatigacha tushuna olsin. Shundagina yosh avlodninig estetikasi rivojlanib yuksaladi.

Yoshlarning ma'naviy , hissiy, estetik did ehtiyojlarining hozirgi darajasi past.

[1]Выготский Л. С. Психология искусства. М.: Педагогика, 1987. –344 с.

Bu esa oʻqituvchilardan ta'lim jarayonida oqilona va tajribada sinalgan yondashuvlarga ega boʻlishni talab qiladi. Kerakli pedagogik ta'lim mezonlarini ishlab chiqish kerak. Yoshlar intilishi kerak boʻlgan ma'naviy-estetik tushunchalar va qadriyatlar doirasini ajratib koʻrsatish lozim. Har bir yosh kesimida psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda idrok etish madaniyatini shakllantirish zarurdir.Yoshlar estetik tafakkurining yuksalishi har bir yoshda u yoki bu xalq qoʻshigʻi yoki musiqiy asarlar uygʻotadigan tuygʻular, musiqiy madaniyatni idrok etish madaniyatini singdirish ta'siri ostida shakllanishi kerak. Oʻquvchi-yoshlar musiqa yoki qoʻshiq tinglashdan hissiy energiya olishi uchun ularga malakali pedagog-oʻqituvchi, murabbiy yordam berishi kerak .

**Adabiyotlar roʻyxati:**

1.Выготский Л. С. Психология искусства. М.: Педагогика, 1987. –344 с.
2.Психология и педагогика:учебное пособие/ В. М. Николаенко, Г. М. Залесов, Т. В. Андрюшина. М.: ИНФРА-М; Новосибирск: НГАЭиУ, 2001. –175 с.
3. Видгоф В.М. В 42 Философия эстетического сознания: интеллектуальноэмоциональный мир, социальная природа и специфика. – Томск: Изд-во Том. ун-та. – 356 с. )
4. Xusanovna, D. N. (2023, April). BOLALAR FALSAFASI VA UNING SHAXS RIVOJIDAGI OʻRNI. In *E Conference Zone* (pp. 73-78).

5. Djalalova, N.(2023). YOSHARNING ESTETIK TAFAKKURINI TARBIYALASH VA YUKSAKTIRISHDA MUSIQIY MADANIYATNING O'RNI. *Прикладные науки в современном мире проблемы и решения*, *2*(4),7-10.
6.Djalalova, N. (2023). PIANO PERFORMANCE AS A FACTOR THAT ACTIVATES STUDENTS'MUSICAL AND AESTHETIC WORLD VIEWS AND DEVELOPS MUSICAL CULTURE. *Science and innovation*, *2*(B4), 339-342.
7.Djalalova, N. (2022). МУСИҚИЙ ВА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ АСОСЛАРИ. *Science and innovation*, *1*(B8), 478-481.
8.Шокиров, Т. Н. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(10-2), 353-359.
9. Abdumalikovna,Y. D. (2021). The Role and Importance of Culture and Art in The Development of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, *3*, 1-3.
10. Juraevna, A. S., Abdumalikovna, Y. D., & Xusanovna, D. N. (2021). MODERN SOCIAL AND PEDAGOGICAL FUNCTIONS OF MUSIC ART AND EDUCATION. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, *1*(1), 57-59.
11. Тешабаева, О. Н., & Юлдашева, Д. А. (2022). Ўзбекистонда банк хизматлари бозори бошқаруви ва ривожланишининг хусусиятлари. *Results of National Scientific Research International Journal*, *1*(3), 91-97.
12. Sobirov, B., Yuldasheva, D., Iroda, N., & Laylo, T. (2022, February). MUSICAL WORKS AND THEIR PLACE IN HUMAN LIFE. In *Archive of Conferences* (pp. 53-56).
13. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, *12*(10).
14. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. *"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.*
15. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, *1*(2), 254-266.

16. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, *14*(1).

17. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, *14*(1).

18. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, *34*, 494-498.

19. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, *34*, 485-489.

20. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. *Scientific progress*, 2(2), 1313-1315.

21. Namozova, D. (2022). BO 'LAJAK MUSIQA O 'QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI MUSIQA TARIXI FANINI O 'QITISH VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH. *Science and innovation*, 1(B6), 942-950.

22. Sultonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA'SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 314-323.

23.D Namozova, Z Astanova, M Egamberdiyev APPROACH TO THE USE OF THE LIVES AND WORKS OF BLIND MENTOR ARTISTS IN EDUCATING YOUNG PERFORMERS (ON THE EXAMPLE OF RASULQORI MAMADALIYEV) *Science and innovation 2 (B4), 149-151*

24. Rustamov, I. (2022). DOYRA CHOLG'USIDA IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI. *Science and innovation*, *1*(B6), 456-460.

25. Rustamov, I. (2022). The Place of Doira Instrument in Uzbek National Art. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, *5*, 74-77.

26. Rustamov, Ismoil (2023). DOIRA CHOLG'U IJROCHILIGIDA IJROVIY USULLARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (4), 74-79.

27. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(5), 320-325.

28. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, *1*(4), 23-28.

29. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, *1*(4), 29-33.

30. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, *8*, 87-89.

30. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(10-2), 265-275.

31. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, *1*(C4), 29-33.

32. Najmetdinova, M. . (2023). YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASINI YUKSALTIRISHDA OMMAVIY-MADANIY TADBIRLARNING FALSAFIY TAHLILI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(6), 17–24.

33. Najmetdinova, M МАҚОМ САНЪАТИ ВА УНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИГА ТАЪСИРИ *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2023

34. MM Najmetdinova - YOSHLARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA–AJDODLAR MEROSINING TUTGAN O'RNI *Finland International Scientific Journal of Education …, 2023*